

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

SAMUKOV TULKUN IRGASHEVICH

**REKTIFIKATSIYA VA EKSTRAKTSIYA JARAYONLARI ASOSIDA GAZ
KONDENSATIDAN ERITUVCHILAR OLIH TEXNOLOGIYALARINI
ISHLAB CHIQISH VA ULARNING XOSSALARINI TADQIQOTI**

02.00.08 - Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)
Content of the dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Samukov Tulkun Irgashevich

Rektifikatsiya va ekstraktsiya jarayonlari asosida
gazkondensatidan erituvchilar olish texnologiyalarini
ishlab chiqish va ularning xossalari tadqiqoti 3

Самуков Тулкун Иргашевич

Разработка технологий получения растворителей
из газоконденсата на основе процессов ректификации
и экстракции и исследования их свойств 25

Samukov Tulkun Irgashevich

Development of technologies for producing solvents
from gas condensate based on rectification and extraction
processes and studying their properties 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

SAMUKOV TULKUN IRGASHEVICH

**REKTIFIKATSIYA VA EKSTRAKTSIYA JARAYONLARI ASOSIDA GAZ
KONDENSATIDAN ERITUVCHILAR OLIH TEXNOLOGIYALARINI
ISHLAB CHIQISH VA ULARNING XOSSALARINI TADQIQOTI**

02.00.08 - Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda uglevododlar xomashyosi energiya ishlab chiqarishning asosiy manbai bo'lib, sanoatning barcha tarmoqlarida keng qo'llaniladi. Tabiiy gaz, neft va gazkondensati iste'molining barqaror o'sishi sharoitida uglevodorodlarni chuqur qayta ishlash bilan sifat ko'r-atchiklari bo'yicha jahon standartlari talablariga mos mahsulotlar olish texnologiyalarini ishlab chiqish ustivor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, uglevodorod xomashyosini qayta ishlash orqali universal va individual, aralash va kompozitsion uglevodorodli erituvchilar olish orqali ekologik ko'rsatkichlari yaxshilangan gazkondensati mahsulotlarini ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda erituvchi materiallar ishlab chiqarish uchun zarur tarkibiy komponentlar tayyorlashning energiyatejamkor texnologiyalarini qo'llashga qaratilgan chuqur tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, gazkondensati tarkibidan molekulasida amin va gidroksil guruhlarini saqlagan yangi avlod ekstragentlar bilan aromatik uglevodorodlarni ajratish, eritish qobiliyati standart smola Kauri - butanol va anilin nuqtasi bilan samarali fazaviy muvozanati chegaralariga mos erituvchilar tarkiblarini yaratish, lak-bo'yoq materiallari uchun organik suyultirgichlar, eritmaning qovushoqligini kamaytiruvchi ko'p komponentli erituvchilar seriyasini ishlab chiqarishning energiya sarfini qisqartirish imkonini beruvchi kam bosqichli texnologiyalarini jadallashtirish va sinovdan o'tkazishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda gazkondensatidan turli mahsulotlar olish uchun innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turini kengaytirish, sifati va hajmini oshirish uchun keng ko'lamdagi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «sanoatni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, mahalliy xomashyo manbalarini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni o'zlashtirish»¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada rektifikatsiya va ekstraktsiya jarayonlari asosida gazkondensatidan erituvchilar olishning sodda va tejamkor texnologiyalarini ishlab chiqishda yangi xomashyodan foydalanish, uglevodorodli erituvchilarning assortimentini kengaytirish va sifati oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yilning 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2017 yil 11 fevraldagi PF-2298-son «2015-2019 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017 yil 6 apreldagi PF-4891-son «Tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmi va tarkibini tanqidiy tahlil qilish, import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish to'g'risida»gi, 2017 yil 21 apreldagi PF-2916-son «2017 - 2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi 2022-yilning 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlantirishning VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiya» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharxi². Ugelvodorodli ertuvchilarni olish texnologiyasini ishlab chiqish, ularning tarkibi va xossalari aniqlash borasidagi tadqiqotlar jahonning bir qator ilmiy markazlari va oliy o‘quv yurtlarida olib borilmoqda, shu jumladan, Center for Analytical Instrument Development (AQSh), Institute for Analytical Instrumentation (Avstriya), Research of Crude Oils (Gollandiya), International Research Centre (Angliya), Institute of Technology Petroleum Petronas (Malayziya), American Petroleum Institute (AQSh), Sentral laboratory facility of University of Aberdeen (Angliya), Science and Technology (Bangladesh), Institute of Petroleum (Angliya), Sankt Peterburg Davlat texnologiya universitet (Rossiya) va Qozon texnologiya universitet (Rossiya), O‘zbekiston Respublikasi fanlari akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, A.Sultonov nomli O‘zbekiston kimyo-farmatsevtika ilmiy-tadqiqot instituti, I.Karimov nomli Toshkent Davlat texnika universiteti, Toshkent kimyo-texnologiya institutida (O‘zbekiston) olib borilmoqda.

Gazkondensati tarkibidan molekulasida amin va gidroksil guruhlarini saqlagan yangi avlod ekstragentlar bilan aromatik uglevodorodlarni ajratish, lak-bo‘yoq materiallari uchun organik suyultirgichlar, eritmaning qovushoqligini kamaytiruvchi ko‘p komponentli erituvchilar seriyasini olish texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ilmiy-amaliy natijalar olingan: turli xil neftlarda mavjud alifatik erituvchilarni rektifikatsiyalash texnologiyasi ishlab chiqilgan (Institute of Chemistry, University of Colorado School, USA va International Research Centre, Angliya); aromatik uglevodorodlarni ekstraksiya orqali ajratish texnologiyasi takomillashtirilgan (Institute of Technology Petroleum Petronas, Malayziya va Qozon texnologiya universiteti, Rossiya); erituvchilarning ekspluatatsion xususiyatlari va fizik-kolloid kimyoviy xossalari o‘rtasidagi bog‘liqliklar aniqlangan (Institute of Petroleum, Angliya va Sankt Peterburg Davlat texnologiya universitet, Rossiya), ko‘p komponentli erituvchilar seriyasi yaratilgan, aralash erituvchilarning fizik-kimyoviy xossalari aniqlangan (Science and Technology, Bangladesh va Umumiy va noorganik kimyo instituti, O‘zbekiston).

Dunyoda turli individual va kompozitsion ekstragentlar yordamida neftdan aromatik uglevodorodlarni ajratish jarayonini jadallashtirish, uning samaradorligini oshirish bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: neftdan ajratib olingan organik va uglevodorod erituvchilarning tarkibi va xossalari zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash; erituvchilar tarkibi va xususiyatlarining fizik, kolloid va kimyoviy xossalari bog‘liqligini aniqlash,

²Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: www.czu.cz, www.iitb.ac.in, www.unipage.net, www.cnr.it, www.put.poznan.pl, www.polandstudy.com, www.cextremelab.edu.rs, www.upm.es, www.umt.edu.pk, www.hotcourses.ru, www.gatech.edu, www.unist.ac.kr, www.tdtu.uz, www.tkti.uz, www.urmon.uz va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

donor-akseptor ta'siri orqali ekstragentlar yordamida aromatik uglevodorodlar kompleksini ajratish nazariyasini asoslash; neftdan erituvchilarni ajratib olishning yangi usullarini va samarali texnologiyalarini ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Gazkondensati tarkibidan aromatik uglevodorodlarni ajratish, organik suyultirgichlar, eritmaning qovushoqligini kamaytiruvchi erituvchilar olish texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha, Izel-Din Muhammad Musrafa, Ch. Reichardt, Dr. Stoe, B.P. Whim, K.Sangwal, John Durkee, Ashis Nag, Alan J., P. Haines., Allegra Smith, Gupta B., Ryan E., Minovyan A.K., A.A. Gayle, N.Yu. Bashkirtseva, O.N. Karatun, N.B. Kapizova, A.S. Erjenkov, C.N. Aminov, A.I. Muxamadiev, O.M. Gorelova, A.A. Alimov va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Ular tomonidan neft fraktsiyalaridan alifatik va aromatik erituvchilar rektifikatsiya orqali ajratib olingan, N-formilmorfolin ishtirokida riforming katalizatorlari va pirolizatorlardan arenlarni ekstraksiyalangan, N-metilkaprolaktam - etilenglikol aralashmasi asosida ksilollarni olingan, erituvchi eritish faolligini anilin nuqtasini aniqlash orqali sifatlangan, ko'p komponentli erituvchilar ishlab chiqarish texnologiyalari takomillashtirilgan.

Shu bilan birga gazkondensat tarkibini aniqlash, uglevodorodli erituvchilar kimyosining nazariyasini asoslash, erituvchilar olishning samarali tizimi va shartlarini ishlab chiqish, arenlarni maksimal ajratish imkonini beruvchi kompozitsion ekstragentlar tarkibini tanlash, yangi ekstragentlar yordamida dastlabki aromatik uglevodorodlar (benzol, toluol va ksilollar)ni ekstraksion ajratish texnologiyalarini jadallashtirish, erituvchilarning samarali qo'llanilish sohalarini aniqlash borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining FA-A13-T147 «Neft va GK xomashyosini distillashning qoldiq ulushi asosida moylash materiallarini ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish» (2015-2017 yy.) amaliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sho'rtan va Maymanak konlari gazkondensatidan yangi avlod ekstragentlar bilan aromatik uglevodorodlarni ajratish, erituvchilar olish texnologiyalarini ishlab chiqish, ularning qo'llanilish sohalarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

uglevodorod erituvchilarni o'rganish va ishlab chiqishga bag'ishlangan zamonaviy adabiy materiallarning ilmiy-amaliy sharhini tuzish;

uglevodorod erituvchilardagi eritmalar kimyosining nazariy masalalarini ko'rib chiqish;

gazkondensati xomashyoning guruh tarkibi, erituvchilar va ularning fizik-kimyoviy xossalarni o'rganish;

erituvchilar assortimentini olishning maqsadga muvofiq va samarali texnologik sxemalari va shartlarini ishlab chiqish;

yangi ekstragentlar yordamida benzol, toluol va boshqa aromatik uglevodorodlarni ekstraksion ajratib olishning texnologik jarayonlarini o'rganish;

uglevodorodlar aralashmasidan aromatik uglevodorodlarni ajratib olish darajasini (80-95 %) ta'minlovchi kompozitsion ekstragentlar tarkibini tanlash;

ishlab chiqilgan uglevodorod erituvchilardagi eritmalarning (laklar, bo'yoqlar, emallar va boshqalar) fizik-kimyoviy va ekspluatatsion xususiyatlarini o'rganish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Sho'rtan va Maymanak tabiiy gaz konlarining gazkondensatlari, aromatik uglevodorodlar, kompozitsion ekstragentlar, erituvchilar olingan.

Tadqiqotning predmeti gazkondensatining guruh va fraktsion tarkibi, uglevodorodli erituvchilarning fizik-kimyoviy xossalari, tarkibidagi aromatik uglevodorodlarning ekstraksiyasi, uglevodorodli erituvchilar ishlab chiqarish texnologiyasini jadallashtirishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari; xromatografiya-mass-spektral tahlil usullari, fraksiya tarkibini aniqlash, shuningdek, organodispersiyalarning ekspluatatsion xossalari aniqlash va zamonaviy kompyuter dasturlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Maymanak va Sho'rtan kimyo majmulalari gazkondensatlarining tarkibi aniqlanib, haqiqiy qaynash nuqtasini aniqlash bilan fraktsiyalangan (aromatik uglevodorodlar - 17,95-28,05 %, alifatik - 58,13-50,31 %, naftenlar - 17,8-15,97 %) va sulfidlash bilan topilgan arenlar miqdori bo'yicha lak bo'yoq materiallar - organodispersiya erituvchilarining tarkibiga mosligi isbotlangan;

GK-LKM seriyali murakkab va ko'p komponentli erituvchilarning ekspluatatsion xususiyatlari - eritish qobiliyati standart smola Kauri - butanol va anilin nuqtasini aniqlash, samarali fazaviy muvozanati bilan asoslangan;

Maymanak va Sho'rtan kimyo majmulalari gazkondensatlari tarkibidan benzol- va toluol poliaminospirtli ekstragentlar («Laprol-805», «Lapramol-294») bilan ajratilib, sanoat ekstragentlari - dietilenglikolga nisbatan 6-6,5 marta, dimetil-sulfoksiddan - 1,2 marta, dimetilformamiddan 1,5 marta, furfuroldan esa 2,1 marta selektiv ekanligi isbotlangan;

ekstraksiyon ajratishda gazkondensati komponentlarning ekstragent funksional guruhlari bilan o'zaro zaif kimyoviy ta'siri tufayli ekstragent - aromatik uglevodorod kompleksi hosil bo'lishi, donor-aktseptor nazariyasiga mos ekstraksiyalash mexanizmi asoslangan;

ekstraksiyalash haroratning 20 dan 60 °C gacha oshishi bilan «Lapramol-294» ekstragentining xomashyo bilan ta'sir vaqti 8,7 dan 2,2 daqiqagacha qisqarishi va aromatik uglevodorodlarning unumi 32,1 dan 85 foizgacha oshishi isbotlangan;

Sho'rtan va Maymanak konlari gazkondensatidan samarali ekstragentlar bilan aromatik uglevodorodlarni ajratish, erituvchilar olish texnologiyalari ishlab chiqilan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Sho'rtan va Maymanak tabiiy gaz konlarining gazkondensati tarkibi aniqlanib, aromatik uglevodorodlar – benzol va toluollarni ajratishning maqbul parametrlari ishlab chiqilgan;

gazkondensat tarkibi aniqlanib, aromatik uglevodorodlarni ekstraksiyon ajratish uchun ekstragentlar aniqlangan;

gazkondensat tarkibidan aromatik uglevodorodlarni ekstraksiyalash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

GKLKM-C4-120/220 tizimli erituvchi, solvent tipidagi GKLKM-C3-120/160 maxsus erituvchilari, og'ir solvent tipidagi GKLKM-C3-160/220, GKEKS-C3-60/95 ekstra erituvchisi, rezina sanoati uchun erituvchi GKRP-C3-75/115, GKT-A5-105/115 toluol (texnik) erituvchi olishning maqbul parametrlari ishlab chiqilgan.

Sho'rtan va Maymanak konlari gazkondensatidan erituvchilar olish texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tahlilda zamonaviy fizik-kimyoviy usullar IQ-spektroskopiyasi, gaz-suyuqlik xromatografiyasi, xromato-mass-spektrometriya element tahlillari termoanalitik tahlillardan, eksperimental ma'lumotlarga statistik ishlov berishda organik sintez jarayonlari kinetika va termodinamikasining zamonaviy nazariyalaridan foydalanilganligi, nazariy va tajriba tadqiqot natijalarining o'zaro mutanosibligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati gazkondensatidan aromatik fraktsiyalarni ekstraksiyon ajratishda gazkondensati komponentlarning ekstragent amin- va gidroksiguruhlar bilan kimyoviy ta'siri orqali Eks-Ar kompleksi hosil bo'lishi isbotlanib, ekstragentlarning murakkab va ko'p komponentli erituvchilarni selektiv eritish faolligi standart smola Kauri - butanol va anilin nuqtasi bilan bog'liqligining ilmiy asosi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, rektifikatsiya va ekstraksiya jarayonlari asosida gazkondensatidan erituvchilar olishda mavjud arzon xomashyodan foydalanish, poliaminospirtli yangi avlod ekstragentlari bilan aromatik uglevodorodlarni ajratish, lak-bo'yoq materiallari uchun organik suyultirgichlar, eritmaning qovushoqligini kamaytiruvchi ko'p komponentli erituvchilar seriyasini ishlab chiqarish texnologiyasini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Tizimli, aralash va individual erituvchilar olish texnologiyalarini ishlab chiqish va ularning qo'llanilish sohasini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

rektifikatsiya jarayonlari asosida gazkondensatidan erituvchilar olish texnologiyalari Shurtan neft-gaz qazib chiqarish boshqarmasi va «Premium Paints» MChJ ishlab chiqarish jarayonlariga tadbiiq etilgan («O'zbekneftgaz» AJning 2023 yil 8 fevraldagi 02-18-8-126-son ma'lumotnomasi). Natijada eritish qobiliyati standart smola Kauri - butanol va anilin nuqtasi bilan samarali fazaviy muvozanati chegaralariga mos erituvchilar ishlab chiqarish imkoniyatini bergan;

gazkondensati asosida erituvchilar ishlab chiqarish texnologiyasi MChJ SANEG xorijiy kompaniyasining «2024-2026 yillar amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan (MChJ «SANEG» xorijiy kompaniyasining 2023 yil 22 fevraldagi GD-001/440-son ma'lumotnomasi). Natijada GKLKM-S3- 120/160, GKLKM-A-160/220, GKLKM-S4-120/220 seriyadagi erituvchilar ishlab chiqarilgan va UZKABEL AJ QK xorijdan keltirilib foydalanilayotgan neft asosida ishlab chiqariluvchi Nefras S4-135/220 erituvchisini to'liq almashtirish imkonini bergan;

Shurtan va Maymanak gazkondensatidan rektifikatsiya asosida erituvchilar olish texnologiyasi MChJ SANEG xorijiy kompaniyasining «2024-2026 yillar amaliyotga

joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan (MChJ «SANEG» xorijiy kompaniyasining 2023 yil 22 fevraldagi GD-001/440-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zDst 3035-2015 standatri talablariga mos, lok boyoq materiallarini samarali suyultiruvchi ishlab chiqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi va e'lon qilinishi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 2 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining (DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop ettirish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, 8 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarda nashr etilgan. Tadqiqotning ilmiy ustuvorligi O'zbekiston Respublikasining 4 patentlari bilan tasdiqlangan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 191 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsad va vazifalari, tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi belgilangan, tadqiqot ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, chop etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Uglevodorod erituvchilarning kimyosi va olish texnologiyasi»** deb nomlangan birinchi bobida uglevodorodli erituvchilar ishlab chiqarish texnologiyasi, asosiy xossalari va tasnifi yoritilgan. Aniqlanishicha, shu paytgacha erituvchilar ishlab chiqarish uchun boshlang'ich material bo'lishi mumkin bo'lgan GKdan lak-bo'yoq materiallar, rezina buyumlar ishlab chiqarishda va yog'moy sanoatida foydalanilmagan.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida erituvchilarga bo'lgan ehtiyoj ularni Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston Respublikasi, qisman Xitoy Xalq Respublikasidan import qilish hisobiga to'liq qoplanadi. Bu holat respublikamizda uglevodorod (aromatik va alifatik) erituvchilari, ya'ni gaz va neft sanoatining qo'shimcha mahsuloti bo'lgan GKni ishlab chiqarish uchun potentsial xomashyo mavjudligiga qaramasdan yuzaga kelgan. Uglevodorod erituvchilarni ishlab chiqarish imkoniyatini aniqlash uchun quyidagi tizimli kompleks tadqiqotlar o'tkazildi.

Dissertatsiyaning **«Gazkondensatidan erituvchilar olish va xossalari tadqiqoti»** deb nomlangan ikkinchi bobida turli xil GK tarkibi va xususiyatlari o'rganilgan.

«Sho'rtan» va «Maymanak» konlarining GKlari tarkibi va xususiyatlari. GKlari tabiati, tarkibi va tashqi ko'rinishi bo'yicha neftdan farq qiladi. Tadqiqotlarimizda «Sho'rtan» va «Maymanak» konlaridagi GKidan foydalandik. «Sho'rtan» va «Maymanak» konining GK quyidagi fizik-kimyoviy xossalarga ega (1-4 - jadval).

1-jadval

Shoʻrtan GK ning fizik-kimyoviy xossalari

Koʻrsatkich nomi	Oʻlchov birligi	Qiymatlar		
		OʻzDSt 2978: 2015 boʻyicha	Sinov usullar uchun boʻyicha NX	Haqiqiy tarkibi
Suvning massa ulushi, ortiq emas	%	0,1	GOST 2477	Yoʻq
Mexanik aralashmalarning massa ulushi, ortiq emas	%	0,005	GOST 6370	0,0042
Xlorid tuzlarining massa ulushi, ortiq emas	mg/dm ³	10	GOST 21534	2,4
Oltinugurtning massa ulushi	%	Standartlashtirilmagan	GOST 32139	0,0363
Vodorod sulfidining massa ulushi, ortiq emas	% mass	0,002	GOST 32918	0,002
Zichlik, 20 °C	g/sm ³	Standartlashtirilmagan	GOST 3900	0,750

2-jadval

Shoʻrtan GK fraksiyon tarkibi

Fraksiyon tarkibi						10 % fraksiyalarni fraksiyon tarkibini aniqlash	
Xarorat, °C	%	°C	%	°C	%	%	°C
Qaynash boshlanish harorati		60				10	90
70	1	130	58	190	92	20	100
80	5	140	66	200	95	30	108
90	10	150	77	210	96	40	115
100	20	160	80	220	97	50	122
110	33	170	86	230	98	60	134
120	47	180	89	240	99	70	144
						80	160
						90	182
				Qaynash tugallanish harorati	243°C		
				Unum	99,5%		
				Qoldiq	0,5%		
				Yoʻqotish	0%		

3-jadval

Maymanak GK fizik-kimyoviy xossalari

Koʻrsatkich nomi	Oʻlchash birligi	Qiymatlar		
		OʻzDSt 2978: 2015	Sinov usullari uchun NH	Amaldagi miqdori
Suvning massa ulushi, ortiq emas	%	0,1	GOST 2477	Yoʻq
Mexanik aralashmalarning massa ulushi, ortiq emas	%	0,005	GOST 6370	0,0004
Xlorli tuzlarning massa ulushi, ortiq emas	mg/dm ³	10	GOST 21534	2,0

3-jadval davomi

Oltimgugurtning massa ulushi	%	Standartlashtirilmagan	GOST 32139	0,028
Vodorod sulfidning massa ulushi, ortiq emas	% mass	0,002	GOST 32918	0,001
Zichlik, 20 °C da	g/sm ³	Standartlashtirilmagan	GOST 3900	0,777

4-jadval

Maymanak GK fraksiyon tarkibi

Fraksiyon tarkibi						10 % fraksiyalarni fraksiyon tarkibini aniqlash	
°C	%	°C	%	°C	%	%	°C
Qaynash boshlanish harorati		67				10	105
80	1	160	55	240	88	20	117
90	3	170	63	250	90	30	126
100	7	180	68	260	92	40	137
110	15	190	74	270	94	50	152
120	24	200	77	279	95	60	166
130	34	210	79	280	96	70	187
140	42	220	81	284	97	80	215
150	49	230	85			90	250
				Qaynash tugallanish harorati	285°C		
				Unum	99,0%		
				Qoldiq	1,0%		
				Yo'qotish	0%		

GKlar laboratoriya qurilmasi - neftni rektifikatsiya apparati (APH-2)da GOST 11011-85 va ASTM D 2892 asosan haydash orqali haqiqiy qaynash nuqtasini (HQN) aniqlash bilan fraksiyalarga bo'lingan.

Sho'rtan GKning guruh tarkibi o'ziga xosdir: aromatik uglevodorodlar massasi bo'yicha 28,05 %, alifatik - 50,31 %, naftenlar - 15,97 %. O'rtacha molekulyar massasi 164, sindirish ko'rsatkichi 1,4417, solishtirma og'irligi 0,769 g/sm³. Maymanak konining stabillashgan GKga o'xshash xususiyatlarga ega: o'rtacha molekulyar massasi 121,9, sindirish ko'rsatkichi 1,442, kinematik qovushqoqlik 0,8707 mm²/c. GK laboratoriya rektifikatsion kolonkasida haydash orqali HQH ni aniqlash bilan fraksiyalarga bo'lingan, % mass: aromatik uglevodorodlar 17,95, alifatik 58,13 naftenlar 17,8, olefinlar - 5,72.

5-jadval

SHGK va MGK uglevodorod tarkibi, % mass

Ko'rsatgichlar	Sinov usullari	Shurtan GK	Maymanak GK
Aromatik uglevodorodlar massa ulushi, %	ГОСТ 12369-2021	29,10	18,56
Aromatik uglevodorodlar massa ulushi, %	ACTMД 6729	28,05	17,95
Naften uglevodorodlar massa ulushi, %	ACTMД 6729	15,97	17,80
Paraffin van olefin uglevodorodlar massa ulushi, %	ACTMД 6729	50,31	63,64

AU lak - bo'yoq materiallari erituvchilarining muhim tarkibi bo'lib, ularning GK tarkibidagi ulushi ASTM D 6729 va GOST 12329-2021 sulfidlash usuli bilan 2 usulda aniqlandi. 5-jadvalda natijalar taqdim etildi.

APH-2 tajriba qurilmasida erituvchilar olinishi. Turg'un Sho'rtan va Maymanak GK lardan turli hil erituvchilarni olish uchun APH-2 qurilmasidan foydalanildi. Quyidagi erituvchilar olindi (6-jadval).

6-jadval

Gazkondensat erituvchilarining turlari

Gazkondensat erituvchilarining nomlanishi	Unum, % hajm APH-2	Neft erituvchisi analogi
Rezina sanoati uchun erituvchi, gazkondensatli GGRP-S3-75/115	12,5	Nefras -S2/S3- 80/120
Texnik maqsadlar uchun erituvchi (arenlar uchun xom ashyo), gazkondensatli GK-A-65/165	43,25	Nefras -S-50/170
Lak va bo'yoq sanoati uchun erituvchi (solvent turi), gazkondensatli GKLKM -S3-120/160	24,75	Nefras -S4-155/200
Lak va bo'yoq sanoati uchun solvent (og ir solvent turi), gazkondensatli GKLKM-A-160/220	17,5	Nefras -A-120/200
Ekstraksiyon erituvchi (to'g'ridan-to'g'ri haydaladigan), gazkondensatli GKEKS-S3-60/95	18,5	Nefras -S3-70/95
Erituvchi toluol (texnik), gazkondensatli, GKT-A5-105/115	6,5	neft texnik toluol
Tizimli gazkondensatli erituvchi (uayt spirt turi) GKLKM -S4-120/220	42,25	Heфpac -A-120/200

Ajratib olingan fraksiyalarning tarkibi aniqlangan, fraksiyalarning tarkibiy qismlarining fizik-kimyoviy xususiyatlari o'rganilgan. «Maymanak» konining GK fraksiyalarining fizik-kimyoviy xususiyatlari, guruh va individual tarkibi aniqlangan. Uglevodorod guruh tarkibiga asoslanib, kondensat parafin-aromatik xususiyatga ega ekanligi aniqlangan. Shunday qilib, «Sho'rtan» va «Maymanak» GK alifatik-aromatik uglevodorodlar aralashmasi bo'lib, ular erituvchilar ishlab chiqarish uchun boshlang'ich xomashyo bo'lishi mumkin.

Olingan erituvchilarning ekspluatatsion xususiyatlarini baholash uchun ularning fizik-kolloid kimyoviy xossalari o'rganilgan. Har bir fraksiya uchun qaynash harorati oshishi bilan chaqnash nuqtasi ortadi, ammo bu bog'liqlik chiziqli emas, bu GK dan olingan erituvchilarning murakkabligi va ko'p komponentli tabiati bilan belgilanadi. GK-LKM seriyali erituvchilarning eritish qobiliyati ularning eritmalarining standart smola (Kauri - butanol nuqtasi (KB) va anilin nuqtasi (AN)) bilan samarali fazaviy muvozanati belgilaydi.

7-Jadvaldagi ma'lumotlar GKLKM-A-160/220 erituvchisi 25-28 % AU ga ega va Solvent va "Nefras A-120/200" erituvchilarni almashtira olishidan dalolat beradi. GKLKM-S3-120/160 tarkibida alifatik uglevodorodlar miqdori yuqori, AU miqdori esa atigi 3-6 % ni tashkil qiladi.

Ushbu GKLKM-S3-120/160 ni an'anaviy alifatik erituvchilar o'rnida ishlatilishi mumkin. GKLKM-S4-120/220 tarkibida AU miqdori 12,0 %, tizimli erituvchi bo'lib organodispersiyalar uchun eng universal erituvchi hisoblanadi. GK-LKM seriyali erituvchilarda mexanik aralashmalar va suv miqdori normadan past. Erituvchilarda oltingugurt va oltingugurt-organik hosilalarning miqdori ham normadan past.

GK dan olingan erituvchilar bilan an'anaviy erituvchilarning fizik-kimyoviy xossalari qiyosiy jadvali

Ko'rsatkichlar	Ma'lum neft erituvchilari			GK dan olingan neft erituvchilari		
	Nefras A -120/200	Nefras A-130/150	Nefras S4-155/200	GKLKM - A-160/220	GKLKM - S3-120/160	GKLKM - S4-120/220
Zichlik, g/sm ³	0,820 ortiq emas	0,860 ortiq emas	0,790 ortiq emas	0,835	0,864	0,780
Qaynash boshlang'ish harorati, °C	120 kam emas	130 kam emas	160 kam emas	160	120	120
Qaynash so'nggi harorati, °C,	90 % haydalgan ortiq emas 200	90 % haydalgan ortiq emas 150	200	220	160	220
Kolbadagi qoldiq, %, ortiq emas	1,5	2,0	2,0	1,5	1,5	2,0
Yopiq tigelda chaqnash nuqtasi, °C, kam emas	40	27	33	45	28	41
Ksilol bo'yicha uchuvchanlik, sek	yuqori emas 5,5	yuqori emas 1,5	3,0 - 4,5	3,5 - 4,0	1,0 - 1,2	3,0 - 4,5
Anilin nuqtasi, °C, yuqori emas	55	60	65	50	49	45
Kauri-butanol nuqtasi, g	38	35	35	34	54	43
Aromatik uglevodorodlarning massa ulushi, %	20	-	16 yuqori emas	25-28	3-6	12
Oltinugurtning massa ulushi, %	0,02 yuqori emas	0,020 yuqori emas	0,025 yuqori emas	0,0145	0,0062	0,0053
Mexanik aralashmalar va suv miqdori	mavjud emas	mavjud emas	mavjud emas	mavjud emas	mavjud emas	mavjud emas
Mis plastinkada sinov	chidam	chidam	chidam	chidam	chidam	chidam
Yodometrik shkala bo'yicha rang, mg/l yod	etalondan kam emas	30	30	shaffof	shaffof	shaffof
REM, mg/m ³	100	150	150	150	200	300

Yuqorida aytilgan GK-LKM seriyali erituvchilar mis plastinka ustidagi sinovga bardosh berishini isbotlaydi. Olingan erituvchilarning rangi standartdan (shaffof) quyuqroq emas. Ularning havodagi ruxsat etilgan maksimal kont-sentratsiyasi ham organodispersiyalarning erituvchilari uchun TSh standartlariga mos keladi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, GKLKM-S3-120/160, GKLKM-A-160/220 erituvchilar va GKLKM-S4-120/220 tizimli erituvchi fizik-kimyoviy xossalari bo'yicha organodispersiyalarning erituvchilarga qo'yilgan talablarga javob beradi.

Dissertatsiyaning «**Gazkondensatidan rektifikatsiyalash yo'li bilan tizimli va aralash erituvchilar olish texnologiyasini ishlab chiqish va xossalari tadqiqoti**» nomli uchinchi bobida turli erituvchilar olish usullari va texnologiyalari o'rganilgan.

GK dan tizimli erituvchilarni rektifikatsiyalash rejimlarini ishlab chiqish. GK dan APH-2 laboratoriya apparatida 220°C gacha bo'lgan uglevodorod fraktsiyalari ajratiladi. Erituvchilar ishlab chiqarishning sanoat texnologiyasini ishlab chiqish uchun optimal fraktsiyalash sharoitlari aniqlangan. APH-2M qurilmasi (erituvchi ishlab

chiqarish uchun o'zgartirilgan) yordamida GK LKM erituvchilar seriyasini ishlab chiqarish uchun yaratilgan texnologiya parametrlarining USK-2 ishlashi bilan mosligini aniqlash uchun o'xshashlik nazariyasi tenglamalari yordamida hisob-kitoblar amalga oshirildi. Shartli rektifikatsion kolonnaning hisoblangan o'lchamlari olingan: diametri 1,4m, uzunligi 19,5 m va uning hajmi modeldan (APH-2) 100 baravar katta. Rektifikatsion kolonnaning ushbu hisoblangan o'lchamlari Sho'rtan NGQB GKtini barqarorlashtirish qurilmasidagi ishlaydigan rektifikatsion kolonna K-702/9 o'lchamlariga yaqin. Shunday qilib, tavsiya etilgan texnologiyadan foydalanib, barqarorlashtirilgan GKdan keng ko'lamli foydali xususiyatlarga ega GK-LKM seriyali tizimli erituvchilari olinadi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

GK dan lak-bo'yoq materiallar uchun tizimli erituvchilarni ajratib olishning texnologik shartlari. Hisoblash yo'li bilan aniqlangan y'ani xom ashyoni rektifikatsiya kolonnasining 23-tarelkalari oralig'idan berish va bu tarelkalar orasidagi 120-220 °C haroratni ushlab tizimli erituvchilar olish yuqori unumli ekanligini ko'rsatdi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi hamda kapital harajatlarni kamaytiradi. GK-LKM seriyasi erituvchilari nisbatan oddiy texnologiya yordamida va arzonroq narxda ishlab chiqariladi. Ishlab chiqilgan texnologiya, shuningdek, "Sho'rtangaz" NGQB da kondensatni barqarorlashtirish qurilmasi (KBQ) sharoitlarini ham hisobga oladi, bu gaz konida erituvchilarni olish imkonini beradi. Uayt spirti GK LKM-S4-120/220 kabi tizimli erituvchi ham yuqoridagi texnologiya yordamida olinadi, faqat yon mustahkamlovchi kolonnada GK ning uglevodorod fraktsiyalarini tanlash parametrlari o'zgartiriladi, kolonnaning pastki qismidagi kran yopiladi, 120-220 °C haroratli bug' oqimi nasos yordamida sovitgichga yo'naltiriladi, sovitilgandan so'ng u degazatorga chiqariladi, bu yerda 120-220 °C fraktsiyasi propan-butan gaz aralashmasidan gabsizlantiriladi va GK dan tizimli erituvchining maqsadli fraktsiya, GK LKM-S4-120/220 deb ataladigan uayt-spirt olinadi. GK dan GK-LKM seriyali erituvchilarni ishlab chiqarish uchun ishlab chiqilgan texnologiyaning maqsadga muvofiqligini baholash uchun APH-2 sinov qurilmasi modellashtirilgan. GK ni rektifikatsiyalash orqali lak-bo'yoq materiallari erituvchilarni olish, diametri $d=0,202$ m, uzunligi $l=1,016$ m bo'lgan APH-2 rektifikatsion kolonka modelida o'rganilgan. Ishlab chiqilgan kolonnaning parametrlarini sanoatda qo'llash uchun 1000 barobar kattalashtirsak "Sho'rtan" NGQB kondensatni barqarorlashtirish qurilmasi (KBQ) parametrlariga yaqinligi aniqlandi va u yerda GK dan GK-LKM seriyali erituvchilarni ishlab chiqarish imkonini beradi.


GKdan rektifikatsiyalash yo'li bilan ekstra-erituvchi olish texnologiyasi va xossalarini tadqiqoti. Ma'lumki alifatik uglevodorodlarning past haroratda qaynaydigan (60 - 90 °C) fraktsiyasi o'simlik moylarini ekstraktsiya qilib ajratishda keng qo'llaniladi. Sho'rtan va Maymanak tabiiy gaz konlarining turg'un GK lari APH-2 yordamida rektifikatsiya qilib olingan ekstraktsion erituvchi yog'-moy sanoati uchun xom ashyo erituvchi sifatida qo'llanilishi mumkin. GK ni fraktsiyasilash kub ichida 150 °C gacha bo'lgan haroratda amalga oshirildi. 60-95 °C gacha bo'lgan fraktsiya, shuningdek, shartli ravishda GKEKS-S3-60/95 deb nomlangan 60 dan 95 °C gacha qaynash haroratiga ega bo'lgan erituvchi olingan. 60-95 °C uglevodorodlar fraktsiyasi (yog'-moy sanoati uchun to'g'ridan-to'g'ri haydab olinadigan "Nefras-S3-70/95" neft erituvchisining analogi) GKEKS-S3-60/95 hajm bo'yicha 18,5% ni tashkil etgan.

Kattaqo'rg'on yog'-moy kombinati ishlab chiqarish-texnik laboratoriyasida to'g'ridan-to'g'ri haydab olinadigan ekstraksion erituvchining 8 namunasi tekshirilgan. Tajriba natijalari standartlar talablariga javob beradigan yuqori sifatli (kam oltingugurt miqdori) ekstraksion (to'g'ridan-to'g'ri haydab olinadigan) GK erituvchisi "GKEKS-S3-60/95" ishlab chiqarilganligini ko'rsatdi.

GKdan rektifikatsiyalash yo'li bilan rezina sanoati uchun erituvchi olish texnologiyasi va xossalarini tadqiqoti. Bunday erituvchilarni ishlab chiqarishning ilgari ma'lum bo'lgan texnologiyalari neftni qayta ishlash zavodlarida neftlarni rektifikatsiya qilib ajratib olish va ularni zaharli aralashmalardan tozalashga asoslangan. Birinchi marta ShGK va MGK ning uglevodorod fraktsiyasidan yangi turdagi erituvchi olindi va xossalari o'rganildi. Shu bilan birga, erituvchining yuqori sifati va ekologik tozaligi ta'minlangan. MGK fraksiyasini saralash kubda 190 °C gacha bo'lgan haroratda amalga oshirildi. 75-115 °C gacha bo'lgan fraktsiya, shuningdek, shartli ravishda GKRP- C3 -75/115 deb nomlangan qaynash harorati 75 dan 115 °C gacha bo'lgan erituvchi olindi. Tajriba natijalari standartlar talablariga javob beradigan yuqori sifatli (kam oltingugurt miqdori-0,0055 %) rektifikatsion (to'g'ridan-to'g'ri haydab olinadigan) GK erituvchisi "Erituvchi GKRP-S3-75/115" hajm bo'yicha 12,5 % ishlab chiqarilganligini ko'rsatdi. Taqdim etilgan ma'lumotlar bizga "Nefras S2 - 80/120", "Nefras S3-80/120" ning analogi sifatida "Erituvchi GKRP-S3-75/115" yangi erituvchini ishlab chiqarishning sanoat usulini tavsiya qilish imkonini berdi.

GK ni rektifikatsiyalash bilan texnik maqsadlarda erituvchi (arenlar uchun xom ashyo) olish texnologiyasi va xossalarini tadqiqoti. MGK fraksiyasini saralash kubdagi 210 °C gacha bo'lgan haroratda amalga oshirildi. 65-165 °C gacha bo'lgan fraktsiya, shuningdek, shartli nomlangan GK-A-65/165 deb nomlangan 65 dan 165 °C gacha bo'lgan qaynash haroratiga ega bo'lgan erituvchi olingan. Tajriba natijalari standartlar talablariga javob beradigan yuqori sifatli (aromatik uglevodorod tarkibi bo'yicha 26,76 %) "GK-A-65/165" hajm bo'yicha 43,25 % erituvchisi ishlab chiqarilganligini ko'rsatdi. Ishlanma "Nefras-S-50/170" analogi sifatida "GK-A-65/165" erituvchisini sanoat ishlab chiqarish uchun tavsiya etildi.

GK dan tizimli erituvchilarni sanoatda ishlab chiqarishning asosiy texnologik sxemasi (1-rasm). Ta'minlovchi sig'imdan GK pechga (1) beriladi, u yerda 360 °C ga qadar qizdiriladi va mustahkamlovchi kolonna bilan jihozlangan rektifikatsion kolonnaga (2) beriladi. 23-tarelkadan asosiy kolonnaning (2) ustki qismidan hisoblangan holda, 120-220 °C haroratli bug'oqimi olinadi va yon mustahkamlovchi kolonnaning (9) pastki tarelkasiga yo'naltiriladi. Etanizatsiya gazlari bilan chiqadigan uglevodorodlar sovitgichga (6) kiradi. Sovitgichda (6) 160 °C haroratgacha kondensatsiyalangan suyuq uglevodorodlar deetanizator idishida (7) yig'iladi, u yerdan nasos (8) yordamida kolonnada (9) sovuq sug'orish uchun beriladi. Ushbu kolonnaning yuqori qismidagi mahsulot shartli ravishda GKLM-S3-120/160 deb nomlangan solvent turidagi erituvchining 120-160 °C dagi maqsadli fraktsiyadir (chizmadagi 6, 7, 8, 9 bo'g'inlar biz tomondan qo'shilgan). 160-220 °C haroratli uglevodorodlarning fraktsiyasi kolonna (9) pastki qismining mahsuloti og'ir solvent turi bo'lib, shartli ravishda GKLM-A-160/220 deb nomlandi.




2-rasm. GKdan rezina sanoati «GKRP-S3-75/115», texnik madsadlar uchun «GK-A-65/165» va texnik toluol «GKT-A5-105/115» olishning yagona texnologik sxemasi

E-sig'implar; K-rektifikatsiya kolonnalari; H-reboylar; N-nasoslar; T-issiqlik almashtirgichlar; X-sovutgich kondensatorlari; XB-havo sovutgichlari;

Quyidagi olingan mahsulotlar: 75-115°C; 65-165°C; 105-115°C erituvchilar. Erituvchilar tarkibida aromatik uglevadarodlar miqdor quyidagicha: GKRP-C3-75/115 0-3%, GK-A-65/165 27-32%, GKT-A5-105/115°C 82-87% gacha. Gazokondensat tarkibidagi 220-360 °C fraksiyalar (va boshqalar) K-2 kolonnasining pastki tarelkalari orali'gidan K-2/2 mustahkamlash (stabillash) kolonnasiga beriladi va olingan mahsulotlar yoqilg'i ishlab chiqarishda yoki neftgaz kimyosi uchun xom ashyo sifatida qo'llaniladi. K-2 kolonnasining pastki qismidan mazut xom ashyosi olinadi va moy ishlab chiqarish uchun ikkilamchi qayta ishlashga yuboriladi. Ushbu rektifikatsiya usuli orqali gazokondensatdan turli xildagi erituvchilarni olish mumkin.

GK dan tizimli erituvchilarni ajratib olishda rektifikatsion kolonna jarayonini modellashtirish. GKLKM-S3-120/160, GKLKM-A-160/220 va GKLKM-S4-120/220 erituvchi fraksiyalarini ishlab chiqarish uchun rektifikatsion kolonnani modellashtirish Aspen HYSYS v.10 dasturiy majmuasida amalga oshirilgan. Rektifikatsion kolonna va GK dan erituvchilarni olish jarayonini Aspen HYSYS v.10 muhitidagi modeli 3-rasmda keltirilgan. RVS-1 sig'imidan olingan GK aralashmasining xom ashyosi R-100 nasosi orqali E-101 pechiga kiradi. Sig'imdan dastlabki harorati 20°C bo'lgan xom ashyo E-104; E-103; E-100 issiqlik almashgichlari orqali bosqichma-bosqich yetkazib berilgan. Shundan so'ng, RCY-3 qaytar klapan orqali P-101 (E-101) pechiga kiritilgan. Pechda xomashyo 221,2°C ga qadar isitiladi va yuvish uchun T-100 rektifikatsion kolonnaga o'tadi. T-101 rektifikatsion kolonnaning shlemidan qaytar klapan RCY-2 orqali uglevodorodning harorati 190 °C isitiladigan qo'shimcha fraksiyalar (Q-105 issiqlik oqimi yordamida) beriladi. T-100 kolonnaning pastki qismidan og'ir uglevodorodlar TEE-100 separatoriga beriladi, ular ikki qismga bo'linadi, suyuq faza R-101 nasosi yordamida E-102 pechiga o'tadi va 356,7 °C gacha isitiladi va RCY-1 qaytar klapan orqali T-100 kolonnaning pastki qismiga yetkazib beriladi. Gaz fazasi E-100 issiqlik almashgichdan o'tadi va 95 °C gacha sovutiladi, bu fraksiya 220-360 °C (og'ir dizel fraksiyasi). T-100 kolonnaning yuqori qismidan



3-rasm. GK dan GKLKM-S3-120/160, GKLKM-A-160/220 va GKLKM-S4-120/220 erituvchilarni olish sxemasining HYSYS dagi modeli

chiqadigan 60-135 °C gacha bo‘lgan yengil benzol fraksiyasi bo‘lib, u sovitgichga va keyinchalik tayyor mahsulot sig‘imiga va yo‘ldosh gazlar keyingi maqsadda foydalanish uchun tushadi.

T-101 rektifikatsion kolonnaning pastki qismidan 208,7 °C haroratli uglevodorodlarning og‘ir qismi T-102 rektifikatsion kolonnaga (Q-106 issiqlik oqimi yordamida) beriladi va 211,8 °C ga qadar isitiladi, kolonnaning ustki qismidan 170,6 °C haroratda fraksiya E-104 issiqlik almashgichga yuboriladi, 30°C ga sovitiladi, natijada 120-160 °C dagi fraksiya (Solvent turidagi uglevodorodli erituvchi) olinadi. 211,8 °C haroratli kolonnaning pastki qismidan og‘ir fraksiyalar E-103 issiqlik almashgichga o‘tkaziladi va 45 °C ga qadar sovitiladi, natijada 160-220 °C li (og‘ir Solvent turidagi uglevodorodli erituvchi) fraksiya olinadi.

GK dan erituvchilarni olish jarayoni uchun taklif qilingan model aynan o‘xshash hisoblanib, haqiqiy qurilma bilan solishtirish mumkin.


Dissertatsiyaning «**Gazkondensatidan ekstraksiya yo‘li bilan alohida va maxsus erituvchilar olish texnologiyasini ishlab chiqish va xossalarini tadqiqoti**» nomli to‘rtinchi bobida AU va maxsus erituvchilarni olish usullari va texnologiyalari narijalari keltirilgan.

Aromatik uglevodorodlarning individual ekstragentlar yordamida GK ning keng fraksiyalaridan ajratib olish. Tadqiqot ob‘ekti sifatida MGK va ShGK 65-165 °C to‘g‘ridan-to‘g‘ri haydab olinadigan fraksiyasi tanlab olingan. AU molekulasini amin va gidroksil guruhlarini o‘z ichiga olgan yangi ekstragentlar bilan GK dan ajratib olinadi. Ushbu ekstragentlar shartli ravishda “Laprol-805” va “Lapramol-294” deb nomlangan. Yangi ekstragentlarning samaradorligi ma‘lum bo‘lganlar bilan taqqoslandi: dietilenglikol (DEG), dimetilsulfoksid (DMSO), dimetilformamid (DMF) va furfurool. Ekstraksiya natijalari shuni ko‘rsatadiki, tavsiya etilgan ekstragentlar aromatik uglevodorodlarni olishda DEGga qaraganda taxminan 6-6,5 marta, DMSO dan 1,2 marta, DMFdan 1,5 marta, furfuroldan 2,1 marta yuqori bo‘lgan. Aromatik uglevodorodlar eng yuqori bo‘lgan ekstrakt 20-45 °C haroratda individual erituvchilar bilan ekstraksiyalash bilan olingan. Lapramol-294 yaxshi ekstraksiyon qobiliyatiga ega ekanligi aniqlandi. Bir bosqichli jarayonda erituvchidan foydalanganda aromatik

uglevodorodlarni olish darajasi 10-15 % (massa) ga yuqori bo'lgan. Shunday qilib, GK ning YeUKFdan tavsiya etilgan samarali individual ekstragentlar yordamida oddiy ekstraksiyalash yordamida yuqori sifatli AU (benzol, toluol va qoldiq) olinadi.


GK dan maxsus erituvchilar olish texnologiyasi va xossalarini tadqiqoti. GK ning 65-165 °C fraksiyasidan aromatik uglevodorodlarni ekstraksiyalash uchun 50 % hajm DMSO va 50 % hajm N-VK dan iborat kompozitsion ekstragent bilan tadqiqotlar o'tkazildi. Ekstraksiya natijalari quyida keltirilgan: ekstragent va xom ashyo nisbati 1:1 (hajm); harorat – 25 °C; bosqichlar soni - 3; aromatik konsentratning sindirish ko'rsatkichi 1,4924; solishtirma og'irlik - 0,8976; ekstraktdagi aromatik uglevodorodlar miqdori, % (fraksiya tarkibiga nisbatan) 27,1. Kompozitsion ekstragent yordamida olingan aromatik konsentratning sifat tarkibi mass-xromatografiya yordamida aniqlandi. Shartli ravishda GKE-A5-65/165 deb nomlangan erituvchi tarkibida kamida 60% aromatik uglevodorodlar mavjud. Fizik-kimyoviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uglevodorod fraksiyasidan olingan erituvchi solvent kabi maxsus turdagi erituvchilar uchun texnik talablarga javob beradi.

